# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 5/1 2025



*гуманитарные науки*
*естественные науки*
*технические науки*

ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

***2025***

**5/1-сан**

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

**Yakubova U.Sh.** Talabalarning ijtimoiy-pedagogik kompetentliligini rivojlantiruvchi texnologiyalari ..... 482
**Xurramov K.M.** Tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy qilish ..... 493
**Xolova M.Sh.** Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari ..... 496
**Yakubov B.B.** Kredit modul tizimida talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishning nazariy asoslari ..... 503
**Gulyamova N.B.** Raqamli texnologiyalar yordamida pedagoglar tarbiyachilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari ..... 513
**Abduxamidova D.A.** Multimadaniy guruhlarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari ..... 519
**Номозов М.М.** Халқ оғзаки ижоди воситасида ёш авлодни тарбиялаш масалалари ..... 527
**Ataqulova N.O.** Nofilologik ta'lim yo'nalishida muloqot ma'daniyatini shakllantirish metodikasi ..... 531

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

**Kunnazarov A.M.** Paravelosportchilarni funksional va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlili hamda o‘sish dinamikasi ..... 535
**Mirzayev A.M.** Kursant va tinglovchilarning jismoniy va jangovar tayyorgarligini takomillashtirishning tadqiqot bosqichlari ..... 540
**Газиева З.Ю.** Самбочиларни мусобақаолди даврида тиклантиришнинг ўзига хос жиҳатлари ..... 545
**Egamqulova M.Sh.** 12-13 yoshli bokschilarga dastlabki texnik harakatlarni o’rgatish uslubiyat ..... 554
**Madjidov R.R.** 13-15 yoshli bokschilarni psixologik tayyorgarligida ring oldidagi vahimani yengish usullari ..... 559
**Турсуналиев У.Ш.** Таэквондочиларнинг қўл ва оёқ зарбалари техникасини баҳолаш услубиятини такомиллаштириш ..... 564
**Эрдонов О.Л., Махмудов В.В.** Применение информационных технологий в физическом воспитании студенческой молодежи ..... 570
**Эрдонов О.Л.** Спортивная игра в бадминтон как эффективное средство оздоровительной направленности ..... 576

# KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

***Yakubov B.B.***
*Termiz davlat universiteti Kopyuter va dasturiy injiniring kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** kredit-modul tizimi, ta'lim jarayoni, ECTS, modul, talabalar mustaqilligi, talabalarning axborot kompetentliligi, axborot texnologiyalari, kompetentli yondashuv, o'quv yuklamasi, bilim sifatini baholash, innovatsion pedagogika, akademik erkinlik.
**Ключевые слова:** кредитно-модульная система, образовательный процесс, ECTS, модуль, самостоятельность студентов, информационная компетентность студентов, информационные технологии, компетентностный подход, учебная нагрузка, оценка качества знаний, инновационная педагогика, академическая свобода.
**Keywords:** credit-module system, educational process, ECTS, module, students' independence, students' information competence, information technologies, competence-based approach, study workload, quality assessment, innovative pedagogy, academic freedom.

**РЕЗЮМЕ:**
Ushbu maqolada ijtimoiy-pedagogik kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim texnologiyalari, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar, mustaqil ta'limni shakllantiruvchi texnologiyalar hamda ijodiy faoliyatni integratsiyalashgan holda rivojlantirishga yo'naltirilgan usullar alohida o'rganilgan. Maqolada ijtimoiy pedagogika fanining turli mavzulariga oid amaliy misollar asosida ushbu texnologiyalarning samaradorligi ochib berilgan.
**РЕЗЮМЕ:**
В статье анализируются современные педагогические технологии, направленные на формирование и развитие социально-педагогической компетентности. В частности, рассматриваются образовательные технологии, основанные на компетентностном подходе, методы, развивающие творческое мышление, технологии, формирующие самостоятельное обучение, а также подходы, направленные на интеграцию творческой деятельности. На основе практических примеров, связанных с тематикой социальной педагогики, раскрывается эффективность данных технологий.
**SUMMARY:**
This article analyzes modern pedagogical technologies that contribute to the formation and development of socio-pedagogical competence. In particular, it examines competency-based educational technologies, methods that foster creative thinking, technologies that develop independent learning, and approaches aimed at integrating creative activities. The effectiveness

of these technologies is demonstrated through practical examples related to the subject areas of social pedagogy.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Ularda, asosan, yoshlarimizga berilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangicha usullarda tushuntirish nazarda tutilgan[9]. Ayni chog‘da yosh pedagoglardan ish faoliyatini puxta rejalashtirishi, qo‘yilgan masalaning to‘laqonli yechimini topishi uchun zarur bo‘lgan axborotlarni tezkor topa olishi, o‘rganilayotgan ob’ekt yoki jarayon modelini ko‘ra bilishi hamda zamonaviy texnologiyalaridan unumli foydalana olishi uchun yetarli malakalarga ega bo‘lishi talab etilmoqda.

Bugungi kunda barcha oliy ta’lim muassasalarida kredit-modulli ta’lim tizimiga o‘tish, o‘quv jarayonini global standartlar bilan birlashtirish, o‘quv jarayonini talabalar uchun yanada shaffof va tushunarli qilish, talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Oliy ta’lim sohasida kredit ko‘pchilikka bank va moliya sohasi orqali tanish bo‘lgan qarzdorlik yoki moliyaviy majburiyat tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun oliy ta’lim sohasida kredit so‘zi ko‘pincha “akademik” so‘zi bilan birga ishlatiladi. Akademik kredit - oliy ta’limning muayyan bosqichida ushbu ta’lim darajasini qo‘lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to‘plab boriladigan ramziy o‘lchov birligi. Bu birlik talaba ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o‘qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi. Modul-ECTS tizimida o‘quv dasturi bir necha modullardan tashkil topadi. Talaba kreditlarni faqat modullar orqali qo‘lga kiritishi mumkin. ECTS tizimida akademik modul - yaxlit, muayyan o‘quv natijalariga erishishga qaratilgan, o‘zining baholash mezonlariga ega bulgan tizimli, izchil o‘qish va o‘rganish harakatlari jamlanmasi. U odatda bir semestr davom etadi lekin ayrim hollarda bir necha soatdan iborat bo‘lishi ham mumkin. ECTS tizimida har bir modul o‘zida muayyan miqdordagi kreditlarni aks ettiradi. Demak, o‘quv dasturidagi har bir fan bu modul hisoblanadi. Chunki u yaxlitlikka ega, muayyan o‘qish natijalariga erishishga yo‘naltirilgan, o‘zining tizimi va baholash mezonlariga ega bo‘lgan izchil o‘qish va o‘rganish harakatlari jamlanmasidir. Modullar  faqat fanlarning o‘zidangina iborat emas. Tadqiqotlar jarayonda tegishli miqdorda kreditlarni o‘zida aks ettiradigan har qanday tizimli va izchil o‘rganish va mashg‘ulotlar jamlanmasini modul deyish mumkin degan xulosaga kelindi.

Kredit-modulli tizim ikkita asosiy funksiya bilan ta’minlangan. Birinchisi – talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini targ‘ib qiladi va bir universitetdan boshqasiga o‘tishni soddalashtiradi. Ikkinchisi – jamg‘arib boriladigan, o‘quv va ilmiy faoliyatning barcha turlarini hisobga olgan holda talaba tomonidan olib boriladigan ish hajmining aniq ta’rifi hisoblanadi.

Kredit – bu, olingan bilimni qachon yoki qayerda olinganidan qatiy nazar, hisobini chiqarish va tan olish demakdir. Almashinuv birligi.

- Modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.
- Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.
- Ta’limning kredit tizimi talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, ta’lim berish va baholashning oshkoraligi tamoyiliga asoslangan bo‘lib, sinov birliklarini yig‘ish va ko‘chirib o‘tkazishdan iboratdir. Mazkur tizim sinov birliklarining jamg‘arib boriladigan ta’limning barcha bosqichlari bo‘yicha ilgari yig‘ilgan o‘sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi.

Modul – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib «modylies» - «o‘lchov», «yo‘l» ma’nosini anglatadi. Modulli o‘qitish tizimi to‘g‘risida birinchi marta 1972 yilda YuNESKO ning Tokiodagi butun jahon anjumanida so‘z yuritilgan.

Modul mustaqil tuzilmaviy birlik hisoblanib, ba’zi hollarda alohida ta’lim oluvchilar butun kursni o‘rganishi shart bo‘lmaydi, faqat bir qator modullarni o‘rganishi mumkin. Talabaning mehnat sarfi – auditoriya mashg‘ulotlari mustaqil ishlar va o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ya’ni ECTS kreditlari faqat auditoriya soatlari bilan chegaralanmasdan talabalarning to‘la yuklamasiga tayanadi.

G.Nazarqulova “Kredit-modul tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini takomillashtirish” deb nomlangan tadqiqot ishida kredit-modul tizimida faoliyat yuritayotgan har bir oliy ta’lim muassasalari o‘zining har bir o‘quv dasturining (bakalavriat, magistratura) o‘qish natijalarini belgilab olishi, dastur katalogini ishlab chiqish va ularni har o‘quv yili boshida o‘z veb sahifasiga shaffof tarzda joylashtirish kerakligini tavsiya etadi.

Hozirda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida kompyuterlashtirish darajasini ko'tarish; ta'limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'lim muassasalaridagi axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud holat va muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Moddiy – texnik bazani takomillashtirish maqsadida, ma'nan eskirganlarini yangilash kerak, ya'ni joylardagi o'quv muassasalarini zamonaviy texnik qurilmalar, zamonaviy kompyuter, videoproyektor, maxsus ekran, televizor, video kamera, veb – kamera, skaner, printer, internet, kompakt disklar, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlanmagan.

2. Ta'lim muassasalarida dasturiy mahsulotlar yetarli darajada emas, o'quvchilar uchun multimedia elektron darsliklar, o'rgatuvchi trenajyorlar, texnik qurilmalarning dasturiy ta'minoti, ularni ishlatish va o'rgatish bo'yicha qo'llanmalar bilan ta'minlanmagan.

3. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lum bir qismi zamonaviy kompyuter texnikasidan o'quv jarayonida yetarli foydalanish malakasiga ega emas. Moddiy – texnik baza va multimedia dasturlaridan dars jarayonlarida, amaliy mashg'ulotlarda foydalanishni bilmaydi.

4. Axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ma'lum qaror va farmonlar qabul qilinib kelayotganligi, bu ilg'or yondashuvlar asosida esa jamiyatimizning ta'lim tizimida innovatsion o'zgarishlar kuzatilayotganidan dalolat beradi. Axborot texnologiyalar yillar davomida fan, ta'lim jarayoniga kirib kelgan bo'lib, chiqarilgan qaror, farmon va buyruqlarning o'z maqsadi bor.

5. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ – 2293 – son Qarori 2015 yil 4 fevralda qabul qilingan. Ushbu Qarorning maqsadi Respublika Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish va nizomini tasdiqlash haqida edi[5].

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 sentyabrdagi "Muhammad al – Xorazmiy nomidagi axborot – kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi PQ – 3274 – son Qarorida "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida zamonaviy axborot va pedagogik

texnologiyalaridan keng foydalanish” hamda “yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan pedagoglarni jalb etgan holda o‘quvchilar jamoalarini tashkil qilish, ularning respublika va xalqaro fan olimpiadalarida muntazam ishtirok etishlarini ta’minlash” vazifasi qo‘yilgan[6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni aytib o‘tib, ayni paytda axborot texnologiyalarini o‘zida qamrab olgan innovatsion o‘zgarishlar ta’lim jarayoni uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi. Murojaatnomada: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”. Shularning amaldagi isboti sifatida “Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 5349 – son Farmoni 2018 yil 19 fevralda qabul qilingan. Ushbu Farmonning maqsadi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish, bu bo‘yicha o‘quv rejalar va dasturlar tuzishdan iborat[2].

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirish uchun qilinayotgan har bir harakat, qabul qilinayotgan har bir Qonun, Qaror va Farmonlar jamiyatimizdagi ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan. Axborot texnologiyalari orqali dars o‘tish, talabalarda tasavvur olamini boyitish, bilishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish uchun poydevor sanaladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bu boradagi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator imkoniyat yaratib beradi. Bularning barchasi axborot kompetentlilikni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borishga qiziqishining oshishiga sabab bo‘lgan.

Tahlillarga ko‘ra, respublikada talabalarda axborot kompetentlikni rivojlantirishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning turli jihatlari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa – da, aynan kredit modul tizimida talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirish asosida amalga oshirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Lekin mazkur olib borilgan tadqiqot ishlari talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirish o‘qitishning boshlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlariga asoslangan kompyuter texnologiyalari ta’limi axborot bilan ishlash qobiliyatlari va ko‘nikmalari shakllanishiga yordam beradi, kommunikativ va tadqiqot qobiliyatlarini, samarali qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi, dialog xususiyatiga ega ta’limni ta’minlaydi.

Tadqiqotchi olimlar loyihalar metodini talaba shaxsining ijodiy o‘zligiga, uning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini, subyektiv yoki obyektiv yangilikka ega, amaliy ahamiyatga molik o‘qituvchi nazorati ostida yangi tovarlar va xizmatlar, yaratish jarayonida iroda xislatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘nalgan ta’lim tizimida sifatida ta’riflaydilar [131].

Ko‘plab mualliflarning tadqiqotlari obyekti bo‘lgan ta’limdagi innovatsiya yangi tushunchalar, masalan, “innovatsion madaniyat” tushunchasi paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Jumladan, Fokina V.N. quyidagicha ta’rif beradi: “Oliy o‘quv yurti o‘qituvchining innovatsion madaniyati uning ijtimoiy ta’lim yangi kiritmalarini o‘tkazishda shakllangan innovatsiya potensiali, shuningdek Oliy o‘quv yurti o‘quv-ta’lim jarayoni mazmuni, tashkil qilinishi va boshqarilishiga yangi elementlarni joriy qilish. Biz innovatsion qobiliyatlar deganda ustuvor bilimlar va tajriba asosida innovatsion vazifani mustaqil, ajratilgan vaqtda va muayyan sifat bilan hal qilish qobiliyatini tushunamiz...” [82]. Axborot kompetentligi, shubhasiz, uning tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki o‘qituvchi innovatsion-pedagogik faoliyatining asosi uning axborot va innovatsion tayyorgarligining yuqori darajada moslashuvchanligi, yangiliklarga ijtimoiy-psixologik tayyorligi, innovatsiya texnologiyalari sohasidagi axborot kompetentligining maqsadga muvofiq shakllanganligi sanaladi.

Innovatsiya vositalaridan biri sifatida shaxsning uzluksiz mustaqil ta’lim olish ehtiyoji va axborotlashgan jamiyat sharoitlari, ijtimoiy strukturadagi sifat o‘zgarishlariga moslashishi, jahon madaniyati qadriyatlariga, axborot resurslariga jalb qilinishi, madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirish pozitsiyasidan namoyon bo‘ladi. Smolnikova S.L. zamonaviy jamiyatni uning hayotini barcha sohalariga axborot texnologiyalari kirib borishi nuqtai nazaridan ta’riflaydi[103].

1. Falsafiy jihat. Eng zaif a’zolarga ko‘ra o‘lchanadigan yuksak hayot sifati (moddiy, ijtimoiy, intellektual-ma’naviy ne’matlar)ga intiladi. Yuksak hyot darajasiga erishish strategiyasi – investitsiyalar ustuvor yo‘nalishlari ro‘yxati hisoblanadi. Dastlabki davlat investitsiyalari iqtisodiyot hamda jamiyatning ma’naviy salohiyatini barqaror qayta tiklash va rivojlantirish uchun ta’lim berishga qaratilishi kerak.

2. Jamiyat axborotlashuvchining ustuvor yo‘nalishlari:

- rivojlanadigan ta’lim g‘oyasini amalga oshirish uchun axborot kompyuter texnologiyalari, informatika metodlari va vositalaridan foydalanish;
- barcha darajadagi o‘quv-tarbiya jarayonini intensifikatsiyalash;
- zamonaviy sharoitlarda farovon hayot kechirish uchun yosh avlodni psixologik va amaliy tayyorlash.

3. Axborot texnologiyalarini keng qo‘llashni quyidagi global sabablararo taqozo qiladi:

- davr talablaridan kelib chiqib energetikadan zamonaviy innovatsion texnologiyaga o‘tish: nogenetik darajada axborotlarni uzatish davriyligi nogenetik darajadagi axborotlarni uzatish davriyligidan oshib ketdi;
- ilmiy paraigmalar almashdi: XX asr – tahlil, XXI asr esa sintez asri hisoblanadi;
- ta’lim paradigmalari almashdi: XX asr – tor ixtisosliklar davri, XXI asr esa Gelvesiy K.A.ning fikrlari hisobga olinganda, yaratuvchi muammolarning tizimli hal qilinishi(Zamonaviy innovatsion texnologiyalar vositasida fundamentalizatsiya va integratsiya) davri hisoblanadi[18]. “Ayrim prinsiplarni bilish ayrim faktlarni bilmaslik o‘rnini oson to‘ldiradi” hamda Bolsman L. Talqin qilganidek, “yaxshi nazariyadan ortiq amaliy narsa yo‘q”[65].

4. Harakatlar dasturlari prinsiplari:

- Ta’lim tizimining ustuvorligi davlat ravnaq topishi va milliy xavfsizlik tizimi elementi sifatida;
- Ta’lim sohasidagi holat uchun davlat va jamoat institutlari o‘rtasidagi mas’uliyatni ajratish.

5. Ijtimoiy sohani axborotlashtirish – jamiyatni axborotlashtirishning birinchi galdagi muammolarini hal qilishning o‘ziga xosliklari:

- Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yutuqlarini joriy qilishda milliy manfaatlar va an’analarga rioya qilish;
- axborot texnologiyalari afzalliklari, erkin tanlovdan foydalangan holda metodikani evolytusion rivojlantirish;
- bazaviy kompyuter tayyorgarligi negizida ta’limning uzluksizligi;
- axborotlashuvini rivojlanishini optimallashtirishning apparat-dasturiy vositalarining mazmunini standartlash va sertifikatsiyalash;
- “yuqoridan” strukturali qayta tashkil qilishni boshqarish.

6. Ta’limda kompyuterlar, informatika va axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishlari:

- o‘rganish obyekti – maktab bo‘g‘inidan boshlab;
- o‘quv, o‘quvdan tashqari, metodik, boshqaruv va ilmiy faoliyatni avtomatlashtirish vositasi.

7. Ta’limda yaratilayotgan axborot muhiti elementlari:

- o‘quv jarayonini kompyuter qo‘llab-quvvatlash metodologiyasi har bir ta’lim darajasi va tipi;
- mamlakat va chet el axborot resurslaridan ommaviy foydalanish uchun bazaviy telekommunikatsiya apparat-dastur muhiti;

- samarali individual ta’lim uchun instrumental kopyuter vositalar, multimedia-texnologiyalar;

- bilimlarni to‘plash, saqlash va tarqatish uchun informatsion resurslardan iborat.

o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab pedagog tadqiqotchilar faoliyat olib borgan. Kompyuterni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni olib borgan xorijiy olimlardan biri E.I.Mashbits hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida “Ta’limni kompyuterlashtirishni to‘xtatib bo‘lmaydi, ta’limda kompyuterni qo‘llash bu orqaga qaytmaydigan jarayondir[86]. Bu o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, uning faoliyati ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan olimlar, o‘qituvchilar, zamonaviy hisoblash texnikasi va dasturiy ta’minotni yaratuvchi kishilarga bog‘liqdir”, – degan fikrlar mavjud.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta’lim jarayonini axborotlashtirish, elektron darsliklar, o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha respublikamiz olimlari ham juda ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, U.Sh.Begimqulov oliy ta’lim tizimi uchun elektron-axborot resurslari yaratish, elektron-ta’lim resurslaridan foydalanib ta’lim jarayonini boshqarish, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish, ta’lim jarayonining yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

O‘quv jarayonining axborot-metodik ta’minoti deganda, me’yoriy-huquqiy, axborot-statistik, o‘quv-tashkiliy, shuningdek, ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik kabi axborot resurslarni qamrab olgan axborot ta’minotni qamrab oluvchi ta’minot tushuniladi[13].

O‘quv jarayonining axborot ta’minoti ta’lim muassasasining yagona axborot muhitini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltiriladi. Yaratilgan zamonaviy axborot ta’minoti ta’lim-tarbiya, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va boshqa jarayonlarda axborot almashish sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish hamda avtomatlashtirish imkoniyatini yaratadi.

O‘quv jarayoniga mo‘ljallangan axborot-metodik ta’minoti quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- axborotni tezkor almashish va masofadan turib foydalanish;

- hujjat almashish va saqlash;

- ta’lim muassasasining barcha a’zolari uchun axborot-metodik ta’minot resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

- ixtiyoriy foydalanuvchilar va hamkor tashkilotlar uchun axborot resurslarini taqdim etish;

- masofadan turib axborot-metodik ta’minot resurslariga yagona muhitda kirish, ma’lumotlar kiritish, saqlash, qayta ishlash va uzatish imkoniyatilarning mavjudligi;

- axborot-metodik ta’minotning turli elektron ta’lim resurslari, jumladan, ma’ruza materiallari, taqdimot, audio va videodarslar va boshqalardan masofadan turib foydalanish;

- axborot-metodik ta’minotdan foydalanishga asoslangan masofaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish;

- ta’lim muassasasining turli sohalarda tahsil oluvchi talabalarni tayyorgarlik va o‘zlashtirish darajasini baholash hamda nazorat qilish;

- axborot-metodik ta’minot tizimiga yuborilgan turli statistik so‘rovlarga aniq, tez va sifatli javob berish va boshqalar.

Zamonaviy ta’lim jarayonlarining axborot-metodik ta’minoti o‘zida o‘quv mashg‘uloti uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni qamrab oladi. (Uning tarkibi 1.1.1-rasmda keltirilgan.)

Axborot-metodik ta’minot tizimining asosiy mazmuni quyidagi o‘quv-uslubiy materiallardan iborat bo‘ladi:

- elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik qo‘llanmalar va boshqa qo‘shimcha materiallar;

- o‘quv-uslubiy majmualar;

- o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun test dasturlari va savollar majmuasi;


- laboratoriya ishlari va ularning tavsifi;

- hisob-grafik, mustaqil ishlar, namunaviy ishlar va nazorat ishlari;

- hisoblash dasturlari, ma’lumotnomalar, ilovalar (qo‘shimcha dasturiy ta’minotlar);

- o‘quv rejalar, taqvim-mavzuli rejalar;

- tadqiqotlar, loyihalar bo‘yicha hisobotlar.




*1.1.1-rasm. Zamonaviy ta’lim jarayonlarining axborot-metodik ta’minoti tarkibi*

Informatika ta’limi bo`yicha metodik tizimni rivojlantirishning pedagogik jihatlari, zamonaviy shakl va vositalari, o‘qitish sifatini takomillashtirishda didaktik vositalarni ishlab chiqish

va ulardan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari A.A.Abdukodirov, F.M.Zakirova, U.Yu.Yuldashev, M.E.Mamarajabov, U.Sh.Begimqulov, A.B.Mogilyov, N.I.Rijova, G.I.Gaysina, M.A.Sokolskaya ilmiy ishlarida alohida e'tibor qaratilgan.

Talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishda kompetentli yondashuvning muhim jihatlariga e'tibor qaratamiz. Kompetentli yondashuv ta'lim oluvchining ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarni o'zida deyarli to'liq tarbiyalash va muhim amaliy vazifalarni hal qilish imkoniyatlarini shakllantirish singari kompetensiyalar tizimiga asoslangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019-yil 31-dekabr, 1030-son.
2. Tojiyev M. "Oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish masalalari". — Toshkent, 2021.
3. O'rinov V. "Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar". — Toshkent, 2020.
4. Ahadov M.Sh. "Kredit-modul tizimida baholashning nazariy asoslari". — Toshkent, 2022.
5. Umarova R. "Ta'lim samaradorligini oshirishda kredit-modul tizimining o'rni". — Toshkent, 2021.
6. Usmonov B.Sh. "Modul asosida ta'limni tashkil etish". — Samarqand, 2020.
7. Nazarqulova G.A. "Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati: nazariya va amaliyot". — Toshkent, 2021.
8. Bologna Process Implementation Report. European Commission, 2020.
9. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. — Open University Press, 2019.
10. OECD. Education at a Glance 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023.

ISSN 2181-7138

Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы

# «МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

**№** 5/1
Нөкис — 2025

Басып шығыўға жуўапкер:
*А. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:
*А. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:
*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

***Мәнзил: 230105 Нөкис қаласы, Әмир Темур көшеси, 179ª жай***
***Тел.: +998 61 224-01-34,*** факс: ***+998 61 224-23-00***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***
***www.KRTEACH.UZ***

***Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 03.09.2025. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №